

Mosh (PHASEOLUS AUREUS) Ekishdan Oldin Uchragan Bir Yillik Va Ko'P Yillik Boshqoli Begona O'Tlarning Turlari, Miqdori, Tarqalish Darajasini Aniqlash

Turdieva Nilufar Mo'minovna

q/x.f.d., professor, O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy tadqiqot instituti Andijon mintaqaviy filiali kichik ilmiy xodim

Shodmonov Alijon Solijon o'g'li

kichik ilmiy xodim, O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy tadqiqot instituti Andijon mintaqaviy filiali kichik ilmiy xodim

Annotatsiya: Qishloq xo'jaligi ekinlarini orasida ko'payib, madaniy ekin turlarini o'sib rivojlanishiga va hosildorlikni pasayishiga sabab bo'ladigan asosiy zararli organizimlardan biri begona o'tlardir. Begona o'tlar bilan kuchli zararlangan yerlarda hosildorlik keskin kamayib ketadi va agrotexnik tadbirlar olib borish qiyinlashadi. Xosildorlik esa 20-23 % bazi xollarda 50-70 % gacha yo'qotilishi mumkin.

Kalit so'zlar: gerbitsid, preparat, boshqoli begona o'tlar, mosh ekini, biologik samaradorlik.

Kirish Yurtimizda yetishtirilayotgan sabzavot va don dukkakli maxsulotlar dunyo bozorlarida talabgir maxsulotlardan hisoblanadi. Shuning uchun ham qishloq xo'jaligida asosiy e'tibor eksportbop maxsulotlarni yetishtirishga qaratilyapti. Boshqa turdagi ekinlarni dukkakli ekinlar bilan almashlab ekish tuproqni dam olishiga qayta tiklanishi va xosildorlikni ortishiga xizmat qiladi. Aholini oziq ovqat maxsulotlari bilan ta'minlash bilan bir qatorda eksportbop maxsulotlar yetishtirish uchun, takroriy ekinlar ekishga katta maydonlar ajratilmoqda. Ushbu maydonlardan ko'zlangan xosilni yetishtirish, o'z navbatida, joriy yilning kuzi va kelgusi yilning qish va baxor oylarida yurtimizning barcha bozorlarida narx-navoning arzonligi va barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Lekin keyingi yillarda qishloq xo'jaligi yerlarida xaddan ziyod begona o'tlar ko'payib ketganligi sababli turli xil kasallik, xashorat, zararkunandalar bilan zararlanmoqda. Ekin maydonlariga sifatsiz tayyorlangan sharbatlar, chiritilmasdan beriladigan maxalliy go'ng va ekinlar orasiga ishlov berilmasligi natijasida begona o'tlar tarqalishi yildan yilga ortib bormoqda [1].

Shuning uchun begona o'tlarga qarshi kurashish muxim a'xamiyatga ega hisoblanadi. Begona o'tlarga qarshi kurashish uchun birinchi navbatda ularning turi, miqdori, uchrash darajasi, biologiyasi va tasnifini bilish muxim hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot ishlarida laboratoriya, dala va ishlab chiqarish tajribalarini joylashtirish, fenologik kuzatuvlar olib borish, "Mamlakatimizga kirib kelishi xavfi bor karantin ostidagi begona o'tlar tasnifi va qarshi kurashish choralari" kabi uslubiy qo'llanmalari asosida olib borildi. Tajribalardan olingan natijalar B.A.Dospexov uslubi bo'yicha matematik-statistik tahlil qilindi.

Tadqiqot o'tkazilgan joy. Andijon viloyati, Izboskan tumanidagi sug'oriladigan yerlarida mosh ekini ekiladigan maydonlardagi boshqoli bir yillik va ikki yillik begona o'tlarning uchrash darajasi bo'yicha kuzatishlar olib borildi. Ushbu begona o'tlar bilan quyida tanishib chiqishingiz mumkin.

Bir yillik boshqoli begona o‘tlar

Yovvoyi suli- *Avena fatua L.* Boshqodoshlar oilasiga mansub bo‘lgan begona o‘t bo‘lib faqat urug‘idan ko‘payadi. Bitta o‘simlik 600 tagacha urug‘ xosil qilishi mumkin. Poyasini balandligi 120 sm, gacha boradi, poyasi to‘g‘ri, boshog‘i dumaloq, urug‘idan unib chiqishi mart oylarida yuz beradi

Qo‘noq o‘t- *Setaria glance* bir yillik g‘allasimon begona o‘t bo‘lib, bahorda xavo xarorati 14⁰C oshgandan dalalarda paydo bo‘ladi. Poyasining balandligi 40-50 sm. gacha o‘sadi. Urug‘lari unuvchanligini 10-15 yilgacha saqlab qoladi. Unuvchanligi esa juda yuqori, asosan tarqalgan maydonlarini urug‘lari orqali ifloslantirib, 1 kv.m. maydonchada o‘rtacha 3-5 dona uchraydi.

Kurmak- *Echinochloa crus-galli (L.)* bir yillik ikki pallalik g‘allasimon begona o‘t bo‘lib faqat urug‘laridan ko‘payadi. Yurtimizda barcha sug‘oriladigan, ba‘zan lalmikor yerlarda xam uchraydi. Bo‘yi 100 sm gacha o‘sadi, iyul-sentabr oylarida gullaydi, urug‘laydi. 1 kv.m. maydonchada o‘rtacha 6000 donagacha urug‘ berad.

Ko‘p yillik boshqoli begona o‘tlar.

Ajriq- *Cynodon dactylon* boshqodoshlar oilasiga mansub begona o‘t ajriq asosan ildiz poyasi yordamida vegetativ yo‘l bilan ko‘payadi. Respublikamizni deyarli barcha maydonlarida uchratishimiz mumkin. Bo‘yi 20-30 sm gacha boradi. Iyun, iyul oylarida gullaydi va avgust, sertyabr oylarida meva beradi. Ajriq tuproqning urug‘i va ildiz bachkilari bilan ifloslantiradi. O‘rtacha 1 m² maydonchada 3-4 dona uchraydi.

G‘umay- *Sorghum halepense L.* Juda xafli butunlay yo‘qotish qiyin bo‘lgan ko‘p yillik g‘allasimon begona o‘t. qolib ketishiga sabab bo‘ladi. Bir tup g‘umay 25 ming tagacha urug‘ hosil qiladi urug‘lari 3-4 yilgacha unuvchanligini saqlab qoladi. Bir tup g‘umay 2000 donagacha urug‘ berishi mumkin. O‘rtacha 1 kv.m maydonchada 3-4 dona uchraydi.[4]

Oldini olish choralari. Birinchi navbatda begona o‘tlar tarqalishiga imkon qadar yo‘l qo‘ymaslik uchun barcha choralarni ko‘rish zarur. Bunda begona o‘tlar urug‘ini xar-xil ma‘nbalar orqali tarqalishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak. Buning uchun erta baxorda va begona o‘tlar urug‘lari xali pishib etilmasdan turib dala chetlarini begona o‘tlardan tozalash va kech kuzda begona o‘t qoldiqlaridan tozalash bilan chuqur shudgorlash tadbirlarini olib borish kerak. Bunda tuproq ostiga chuqur tushgan begona o‘t urug‘lari bahorgacha chirib unuvchanligini yo‘qotadi. Bahorda esa mahalliy o‘g‘itlarni dalalarga chiqarishda ko‘p jixatlarga e‘tibor berish kerak asosan begona o‘tlar chirimagan go‘nglar orqali tarqaladi. Bunda begona o‘tlarni tarqalishini oldini olish maqsadida mehanik va agrotexnik tadbirlarni o‘z vaqtida olib borish talab etiladi.

Qarshi kurashish choralari: Begona o‘tlar dalalarda keng tarqalib iqtisodiy zarar miqdoridan ortib ketganda kimyoviy kurash choralarni qo‘llash zarur. Begona o‘tlarga qarshi gerbitsidlarni qo‘llash tartibi ertalab yoki kechki paytda amalga oshiriladi. Bunda havo harorati 15-20⁰C bo‘lganida, gektariga 100-300 litr me‘yorda ishchi eritma sarflagan xolda qo‘llanilishi tavsiya qilinadi [3].

Mosh ekini orasida uchraydigan bir va ko‘p yillik boshqoli begona o‘tlar tur miqdori va ularning zararlanish darajasi**1-jadval**

№	BEGONA O‘TLARNING NOMLARI			
	O‘zbek tilida	Lotin tilida	Uchrashi, 1 kv.m da	Zararlash darajasi, ballar
		Bir yilliklar		
1	Yovvoyi suli-	<i>Avena fatua L.</i>	5,2	3
2	Qo‘noq o‘t -	<i>Setaria glance</i>	4,4	3
3	Kurmak-	<i>Echinochloa crus-galli (L.)</i>	4,5	3
	O‘rtacha:		4,6	4

	Jami:		14,1	4
4	Ajriq –	<i>Cynodon dactylon</i>	4,1	4
5	G‘umay -	<i>Sorghum halepense L</i>	1,2	2
	O‘rtacha:		2,6	4
	Jami:		5,3	4
	Umumiy jami:		19,4	4

Tadqiqot natijalari Tajribalarda ikki martadan begona o‘tlarning tur va miqdorlari aniqlab borildi. Moshni ekishdan oldin bir va ko‘p yillik g‘allasimon begona o‘tlar 1m² maydonda: Yovvoyi suli- (*Avena fatua L*)- 5,2, Qo‘noq o‘t - (*Setaria glance*) - 4,4, Kurmak - (*Echinochloa crus-galli (L.)*) - 4,5, o‘rtacha miqdorda 4,6 dona ya‘ni 4 ball, jami 14,1 donani tashkil etdi, bu ko‘rsatkich o‘z navbatida dalaning bir yillik boshqoli begona o‘tlar bilan o‘rtacha ifloslanganligini ko‘rsatdi. Ko‘p yillik g‘allasimon begona o‘tlar 1m² maydonda Ajriq - (*Cynodon dactylon*) – 8,1, G‘umay (*Sorghum halepense L*) - 2,3 jami 10,4 dona ya‘ni o‘rtacha ifloslangan bo‘lsada bir va ko‘p yillik boshqoli begona o‘tlar jami 24,5 donani tashkil etgan. Bu o‘z navbatida kuchli ifloslanganligini ko‘rsatdi [2].

Xulosa Mosh ekini ikki pallali bo‘lganligi uchun orasida uchraydigan bir pallali ya‘ni g‘allasimon begona o‘tlarni yo‘qotish unchalik qiyinchilik tug‘dirmaydi. Mosh ekini orasida uchragan g‘allasimon begona o‘tlarga qarshi kurashish uchun eng avvalo ularni turlari, miqdori va uchrash darajasini aniqlab, tarqalishini o‘rganish zarur. Urug‘lari soni va ularni chidamlilik darajasini bilishning ahamiyati katta. Begona o‘tlarni turlarini bilish ularga qarshi kurashishda muhim ahamiyat kasb etadi. Begona o‘tlarning turiga qarab kurash choralari ishlab chiqiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Атабаева Н., Саттаров М.А., Идрисов Х.А. Суғориладиган майдонларда мош этиштиришнинг интенсиве технологияси бўйича тавсиянома. – Тошкент, 2019, - Б.3-4.
2. Доспехов Б.А. “Методика полевого опыта”, Москва.“Колос” -1985.– С.415–418.
3. Турдиева Н.М. ва бошқалар. Бегона ўтларнинг тарқалиши ва уларга қарши курашиш усуллари. - Тошкент, 2024. - Б.10-15.
4. Sattorov Sh.M., Nurmuxamedov D.N., Isamiddinov I.T., Tagabayev Dj.Dj. Qosimov T.T. G‘o‘za va g‘allani begona o‘tlardan himoya qilish. – В.32-65.